

QUTLUG' NIGOR XONIM BOBURIYLAR SULOLASINING FIDOKOR ONASI

Salohiddinova Mohira Shahobiddin qizi
Qo'qon davlat universiteti 2-bosqich talabasi
mohirasalohiddinova369@gmail.com

tel: +998931215483

ORCID 0009-0003-1301-6802

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buyuk Boburiylar imperiyasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigor Xonimning hayoti va tarixiy ahamiyati tadqiq etiladi. Malika Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo'lib, Chingizxonning o'n uchinchi avlodi sanaladi. 1475-yildan boshlab Farg'ona ulusi hokimi Umar Shayx Mirzo nikohida bo'lgan malika erining fojiali vafotidan so'ng o'g'li Boburning sarson-sargardon yillarida uning yonidan ketmagan, taxt uchun kurash davomida eng og'ir sinovlarga dosh bergan.

Abstract

This article examines the life and historical significance of Kutlug Nigor Khan, the mother of Zahiriddin Muhammad Babur, the founder of the Great Babur Empire. The princess was the daughter of Yunus Khan, the governor of Tashkent, and is considered the thirteenth descendant of Genghis Khan. Since 1475, the princess, who was married to Umar Sheikh Mirza, the governor of Fergana ulus, did not leave her son Babur during his wanderings after the tragic death of her husband, and withstood the most difficult trials during the struggle for the throne.

Аннотация

В данной статье рассматривается жизнь и историческое значение Кутлуг Нигор-хан, матери Захириддина Мухаммада Бабура, основателя Великой империи Бабура. Принцесса была дочерью Юнуса-хана, губернатора Ташкента, и считается тринадцатой потомком Чингисхана. С 1475 года принцесса, вышедшая замуж за Умара Шейха Мирзу, губернатора Ферганского улуса, не оставляла своего сына Бабура во время его странствий после трагической смерти мужа и выдержала самые тяжелые испытания в борьбе за трон.

Kalit so'zlar: Qutlug' Nigor Xonim, Bobur, Yunusxon, Umar Shayx Mirzo, Farg'ona ulusi, Eson Davlat Begim, chingiziylar, temuriylar.

Keywords: Kutlug Nigor Khan, Babur, Yunus Khan, Umar Sheikh Mirza, Fergana ulus, Eson Davlat Begim, Genghis Khan, Timurids.

Ключевые слова: Кутлуг Нигор-хан, Бабура, Юнус-хан, Умар Шейх Мирза, Ферганский улус, Эсан Давлат Бегим, Чингисхан, Тимуриды.

Boburiylar sulolasi tarixida ayollarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigor Xonim bu qatorda eng ko'zga ko'ringan shaxsiyatlardan biridir – u o'g'lining eng qiyin kunlarida tayanchi bo'lgan, uni tarbiyalagan va ulg'aygach ham, to hayotining oxirigacha uning yonida bo'lgan. Qutlug' Nigor Xonim Toshkent hokimi Yunusxon va Eson Davlat Begimning qizi bo'lgan. Bobur "Boburnoma"da ona tomonidan bobosi Yunusxonning nasabini batafsil keltirgan: "Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidandur."¹Shunday

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.

qilib, malika Chingizxonning o'n uchinchi avlodi sanaladi. Yunusxonning otasi Vaysxon vafotidan so'ng Mo'g'ulistonida toj-taxt uchun kurash boshlangan. Bu kurashda Yunusxon mag'lub bo'lib, tarafdorlari uni o'n ikki yoshida Movarounnahrda olib qochganlar. Mirzo Ulug'bek uni Iroqqa o'tkazib, Shohrux Mirzo esa alloma Sharafiddin Ali Yazdiy tarbiyasiga topshirgan. Yunusxon uzoq yillar Hirot va Sherozda tahsil olib, keyinchalik Mo'g'uliston taxtiga ko'tarilgan.² Yunusxon taxtga o'tirgandan so'ng do'stlik aloqalarini qarindoshlik rishtalari bilan mustahkamlash maqsadida qizlarini Abu Sa'id Mirzoning o'g'illariga uzatgan. Katta qizi Mehr Nigor Xonimni Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzoga, ikkinchi qizi Qutlug' Nigor Xonimni esa Farg'ona ulusi hokimi Umar Shayx Mirzo nikohiga bergan. Qutlug' Nigor Xonimning bolalik yillari otasining Koshg'ar, Yettikent va Oqsuv shaharlaridagi saroyida o'tgan.

1475-yili Qutlug' Nigor Xonim kelin sifatida Farg'onaga olib kelingan. Uning kuyovi o'n to'qqiz yoshli Umar Shayx Mirzo besh vaqt namozni kanda qilmaydigan, hanafiya mazhabidagi pok e'tiqodli, "Shohnoma" va "Xamsa" kabi asarlarni o'qishni yoqtiradigan savodli yigit bo'lgan.³ Qizini Farg'onaga uzatgan Yunusxon va kuyovi Umar Shayx Mirzo o'rtasida shunday samimiy munosabat bo'lganki, bunaqasi hatto ota-o'g'il o'rtasida ham kam uchraydi, deb yozgan edi muarrixlardan biri. Bu nikohdan Xonzoda Begim va Zahiriddin Muhammad tavallud topgan. Farzandlarining tarbiyasida malikaning onasi Eson Davlat Begimning xizmatlari ham beqiyos bo'lgan. Ikki ming navkarga ega Eson Davlat Begim ko'proq vaqtini Andijondagi Qo'shtegirmon chorbog'ida o'tkazgan. Bobur keyinchalik momosi haqida: "Xotunlar orasida ra'y va tadbirda mening ulug' onam Eson Davlat Begimcha kam bo'lg'ay, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi", deb eslagan.⁴ 1494-yili Qutlug' Nigor Xonim uchun barcha kulfatlar boshlanadi. Eri Umar Shayx Mirzo Axsi qo'rg'onidagi kaptarxonasi bilan birga jarga yiqilib vafot etgan. Bu paytda malika qizi Xonzoda Begim bilan Axsida, o'n bir yoshli Bobur esa Andijondagi chorbog'da edi. Eridan judo bo'lgan malika qolgan umrini farzandlariga bag'ishladi. Farg'ona viloyati har tomonlama urush olovi ichida qolgan edi. Marhum erining tasarrufidagi O'ratepa, Xo'jand va Marg'ilon qaynog'asi Sulton Ahmad Mirzo tomonidan egallab olingan. Andijonda esa Bobur tarafdorlari marhum Umar Shayx Mirzoning boshqa xotinidan bo'lgan o'g'li Jahongir Mirzoni taxtga o'tqazish yo'lini tutdilar. Qamalda qolgan Qutlug' Nigor Xonim o'g'liga maktub yozib, tezroq yetib kelishni so'radi. Shu mazmundagi xatlarni buvisi Eson Davlat Begim va ustoz ham jo'natdi. Samarqandda turgan Bobur onasining qamalda qolganini eshitib, iziga qaytmoqchi bo'ldi. Lekin u qattiq kasallanib, hatto to'rt kun tildan qolib, labiga suvni tomizib ichirdilar.⁵

Dushmanlarga qarshi mahalliy beklar mardonavor kurash olib borgan. Axsi qal'asini beklar himoya qildilar. Sulton Mahmudxon ham orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Bobur kasallikdan ongini tiklab, ona va oilasini qutqarish uchun Samarqanddan chiqdi. Lekin o'sha kuni Andijon darvozalari ham dushmanlarga ochib berildi. Bobur Samarqandni ikkinchi marta egallaganida Qutlug' Nigor Xonim kelini bilan birga saroyga keldi. O'ratepadagi navkarlar ularni Samarqandgacha izzat-ikrom bilan kuzatib keldilar. Onasining adolatparvarlik ruhidagi tarbiyalari asosida Bobur davlatni boshqarishga

² . Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. – Toshkent: Ochun nashriyoti, 2022. – B. 6.

³ . Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. – Toshkent: Ochun nashriyoti, 2022. – B. 6.

⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 62.

⁵ Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. – Toshkent: Ochun nashriyoti, 2022. – B. 14

kirishdi. Ammo baxtli kunlar uzoqqa cho‘zilmadi. Shayboniyxon qaytadan kuch to‘plab Samarqandni qamal qildi. “Onasini olib Shayxzoda darvozasidan chiqqan Bobur opasi Xonzoda Begimning o‘shanda Shayboniyxon iliga tushganini” bilan bu sahna Boburning eng og‘ir xotiralaridan biriga aylangan. Qutlug‘ Nigor Xonim singlisi Xo‘b Nigor Xonim va qaynonasi Shoh Sulton Begimning vafotini ham shu og‘ir kunlarda eshitdi.

1504-yili Movarounnahr butunlay qo‘ldan chiqib ketganiga ishonch hosil qilgan Bobur Kobulga yo‘l oldi. Endilikda Boburning eng qimmatbaho mulki – uning onasi edi. U o‘zi mingan otni onasiga berib, piyoda yurishga majbur bo‘ldi. Kobul taxtini egallaganidan so‘ng Qutlug‘ Nigor Xonim marhum qaynog‘asi Sulton Mahmud Mirzoning beshinchi qizi Zaynab Sulton Begimni o‘g‘liga kelin qildi. Ammo bir yil o‘tmasdan kasallikka yo‘liqdi va Kobulda hayotdan ko‘z yumdi. Bobur tog‘ etagida Ulug‘bek Kobuliy bunyod ettirgan bog‘ni vorislaridan sotib olib, onasini o‘z qo‘li bilan “Bog‘i Navro‘ziy” nomli joyda tuproqqa topshirdi. Bobur vafotidan o‘n to‘rt yil o‘tgach uning hokini ham Kobulga olib kelib, onasi qabri yoniga qayta dafn etdilar. Bugungi kunda Afg‘onistonning poytaxti Kobul shahridagi bu oromgoh “Bog‘i Bobur” deb ataladi.

Xulosa

Qutlug‘ Nigor Xonim Boburiylar sulolasining shakllanishida onasi sifatida nihoyatda muhim rol o‘ynagan. U temuriy va chingiziy qonlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda o‘g‘li Boburni taxt uchun kurash maydonlarida hech qachon tashlab ketmagan. Eri vafotidan so‘ng boshiga tushgan barcha kulfatlarga – qamallar, sargardonlik va yaqinlarini yo‘qotishga qaramay, u Bobur yonida bo‘lgan. Uning sabr-u matonat bilan to‘la hayoti Boburiylar sulolasining ildizlarini tashkil topishida muhim o‘rin tutadi. Kobuldagi Bog‘i Boburda malika qabri yonida uning o‘g‘li va nabiralari ham abadiy tin olgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
2. Botir Yuldashev. Boburiy malikalar. – Toshkent: Ochun nashriyoti, 2022.
3. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Fan, 1996.
4. Gulbadan Begim. Humoyunnoma. – Toshkent: Fan, 1959.
5. T. Fayziyev. Temuriy malikalar. – Toshkent: Sharq, 2004.